

2019-yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi


Hozirgi kunda kuchayib borayotgan global tendentsiyalar va taqdim etilayotgan xizmatlarning xilma-xilligi xizmatlar sohasini iqtisodiyotning mustaqil sektoriga, yani jamiyatimizni "qon aylanish tizimi" sifatida to'ldiruvchi sektorga aylantirdi. Xizmatlar sohasini muhim ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bilan taqqoslash mumkin va funktsional jihatdan u bozor iqtisodiyotini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadigan tarmoqlar va infratuzilma ob'ektlari kabi rol o'ynaydi.

Mazkur sektor xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarini qamrab oladi.

2019-yil 1-mart holatiga ko'ra viloyatimizda 12,8 mingta korxonalar va tashkilotlar xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatmoqda, bu faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida (19,8 mingta) 64,6 % ni tashkil etadi.

Ma'lumot uchun: 2018-yil 1-mart holatida xizmatlar sohasida 10,5 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo sohasida - 33,6 %, tashish va saqlash - 9,8 %, yashash va ovqatlanish sohasida - 9,5 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 4,2 %, axborot va aloqa - 2,0 %, boshqa turlarda - 40,9 % korxonalar va tashkilotlar o'rin egallagan.

2019-yil 1-mart holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil 1-mart holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibida eng yuqori ulushni savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi (35,9 %) tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 10,4 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 9,5 % ga yetdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi 1,7 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash sohasida va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 4,0 % ni tashkil etdi.


2019-yil 1-mart holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1117,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilsa, savdo xizmatlari 54,6 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar hajmining 53,9 mlrd. so'm, transport xizmatlari 33,0 mlrd. so'mga ko'payganligi kuzatiladi. Ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmi 198,6 mlrd. so'mga oshdi.

Alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



2019-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrn. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	1117073,9	111,8
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	56211,9	102,3
moliyaviy xizmatlar	136282,8	162,1
transport xizmatlari	277119,0	105,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	254048,7	101,6
yashash va ovqatlanish xizmatlari	48224,6	105,6
savdo xizmatlari	369721,5	104,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	30272,0	102,0
ta'lim sohasidagi xizmatlar	56967,0	168,2
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	21444,8	110,2
ijara xizmatlari	30755,0	100,1
kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	25005,8	104,0
shaxsiy xizmatlar	24311,1	102,7
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	12014,4	100,1
boshqa xizmatlar	28744,0	102,2


Umumiy tarkibda savdo xizmatlari ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida 33,1 % ni tashkil etadi. Shu bilan birga, transport xizmatlari 24,8 %, moliyaviy xizmatlar 12,2 % hamda ta'lim sohasidagi xizmatlari 5,1 % bilan eng yuqori ulushlarni egallaydi.

2019-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %



Respublikamizda olib borilayotgan yoshlarga keng qamrovdagi imkoniyatlar yaratish bo'yicha islohotlarning davom ettirilishi ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2019-yil yanvar-fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati 168,2 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (162,1 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (110,2 %), yashash va ovqatlanish sohasidagi xizmatlar (105,6 %), transport xizmatlari (105,0 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




Ma'lumot uchun: 2018-yil yanvar-fevral oylarida ta'lim sohasida - 88,1 % ni, transport xizmatlari - 71,6 % ni, moliyaviy xizmatlar - 63,2 % ni, yashash va ovqatlanish xizmatlari – 37,1 % ni, ni tashkil etgan.

2019-yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari hajmi 369,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 33,1 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 54,6 mlrd. so'mga oshdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo xizmatlari bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, 2019-yil yanvar-fevral oylarida uning ulushi 81,9 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



- Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar


Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 11,8 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmida 6,3 % ni tashkil etdi.

Ushbu davr mobaynida yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi 48,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2018-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati 105,6 % ni tashkil etdi va hajmi 8,3 mlrd. so'mga oshdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ulushi 87,9 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 12,1 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %



Buxoro viloyati xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

71-230-83-12

65-223-79-41